
QUVASOYLIK “BESH TASHABBUS OLIMPIADASI” G’OLIB VA SOVRINDORLARI YUTUQLARI TUFAYLI MAHALLALARDA SPORT MAYDONCHALARI BARPO ETILMOQDA

“Besh tashabbus olimpiadasi” ning 2023 yil 1-mavsumi doirasida stol tennisi bo‘yicha Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilgan Respublika bosqichida 22-26 yosh toifasi Kokilon MFY dan Shayxiddin Bahromov faxrli 1-o‘rinni egallagan edi.

Shu munosabat bilan ayni kunda mahalla yoshlari uchun 8 - umumta’lim maktabida “Workout” maydonchasi barpo etilmoqda.

Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Rasuljon Roziqov Shayxiddin Bahromov erishgan yutuq sportsevar yoshlar ko‘payishiga xizmat qilayotganini ta’kidladi.

Ma’lumot o‘rnida, Quvasoy shahrida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan mahallalar yoshlari uchun 5 ta sport maydonchalari to‘liq qurilishi tugatilgan va 3 ta sport maydonchalarida qurilish ishlari davom etmoqda.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-12-04 09:31:48